$$\operatorname{tg} \gamma_{a-1} = \frac{Y_1 - Y_a}{X_1 - X_a}; S = \sqrt{(X_1 - X_a)^2 + (Y_1 - Y_a)^2}.$$

A, b, c, d nuqtalariga navbatma – navbat teodolitni o'rnatib, $\alpha_{a-1}, \alpha_{b-2}, \alpha_{c-3}, \alpha_{d-4}$ direksion burchaklarni yasab, o'sha yo'nalishlar bo'yicha masofalarni qo'yib, **1,2,3,4** nuqtalari joyda topiladi. Ular qoziqlari bilan belgilab qoqiladi.



19.1 – rasm. To'siq orqali trassalash sxemasi.

20 - amaliy mashg'ulot

Serpantin

Serpantin – soʻzi fransuzchadan olingan boʻlib, ilon degan maʼnoni anglatadi. Serpantin togʻdagi katta toʻsiqlardan aylanib oʻtishda qoʻllaniladi. Serpantin ikki xil boʻladi: simmetrik va nosimmetrik.

Simmetrik serpantin. Bunda serpantinaning hamma hamma koʻrsatkichlari bir xil boʻladi. Yaʼni qayrilmalar, graduslar, masofalar va boshqa koʻrsatkichlar.

Nosimmetrik serpantin. Bunda serpantinining hamma hamma koʻrsatkichlari bir xil boʻlmaydi. YAʼni qayrilmalar, graduslar, masofalar va baoshqa koʻrsatkichlar.

Simmetrik serpantin yechimi.

A). asosiy aylana egrisi EDF;

B). ikkita yordamchi egri AF va VE, ularning radiuslari r_1 va r_2 .

V). ikkita toʻgʻri yoki oʻtish egrisi $ME=m_1$, $NF=m_2$

Agar $r_1=r_2$ va $m_1=m_2$ boʻlsa serpantin simmetrik deb ataladi.

Yordamchi egrining qayrilish burchagi quyidagi formuladan topiladi.

$R=54\text{m}$, $\varphi=40^\circ$, $m=25$.

$$1) \operatorname{tg} \beta = \frac{OF}{NF}; OF=R; NF=m+T;$$

$$\operatorname{tg} \beta = \frac{R}{m+T} = \frac{R}{m+rtg \frac{\beta}{2}} = \frac{54}{25+19.65} = 1.2094;$$

$$2) \operatorname{tg} \beta = R \cdot \operatorname{tg} \frac{\varphi}{2} = 54 \cdot \operatorname{tg} \frac{40}{2} = 19.65 \text{ m} \quad \beta = 50.41 = 51^\circ$$

$$3) d = \frac{R}{\operatorname{ctg} \beta} = \frac{54}{\operatorname{ctg} 51^\circ} = 66.68 \text{ m}$$

$$4) \gamma_0 = 90^\circ - \beta = 90^\circ - 51^\circ = 39^\circ$$

$$5) \varphi_0 = 360^\circ - (2\gamma + \beta + \varphi) = 360^\circ - (2 \cdot 39^\circ + 51^\circ + 40^\circ) = 191^\circ$$

$$6) K = \frac{\pi R}{180^\circ} \cdot \varphi = \frac{3.14 \cdot 54}{180^\circ} \cdot 40^\circ = 37.68 \text{ m}$$

$$7) D = 2T - K = 2 \cdot 19.65 - 37.68 = 1.62 \text{ m}$$

21 - amaliy mashg'ulot

Serpantinni joyga oʻtkazish


Teodolit O nuqtaga o'rnatiladi. OA va OV to'g'ri chiziq bo'ylab d masofa qo'yiladi. SHunday qilib yordamchi egrilarning uchlari M va N topiladi. So'ngra OA bo'ylab tangens T ning qiymati qo'yilib serpantining boshi A va oxiri B topiladi. Keyin OA yo'nalish bo'yicha γ burchagi yasaladi. Topilgan OF yo'nalish bo'yicha asosiy egrining radiusi R o'lchab topiladi, joyda asosiy aylana egrisining boshi F nuqtasi topiladi. SHu kabi OB yo'nalishi bo'yicha asosiy aylana egrisining oxiri E nuqtasi ham topiladi. (21.1 - rasm).

“Beda bargi” yo'l echimi

$$R=14m \quad \beta=45^0 \quad BO=c$$

$$c = \frac{R}{\sin \beta} = \frac{14}{\sin 45^0} = 19.79 \text{ m} \quad S = c \cdot \cos \beta = 19.79 \cdot \cos 45 = 14 \text{ m}$$

$$BN = \sqrt{2(c + OD + DE)^2} = \sqrt{2 \cdot (19 + 14 + 5)^2} = 53,74 \text{ m}$$



21.1 – rasm. Simmetrik serpantin sxemasi.

$$AB + c + OD + DE + EF = 16,97 + 19,79 + 14 + 5 + 10 = 65,76 \text{ m}$$

Serpantinani joyga o'tkazish

Teodolitni 0 nuqtaga o'rnatiladi. OA va OV to'g'ri chiziq bo'ylab d masofa qo'yiladi. SHunday qilib, yordamchi egrilarning uchlari M va N topiladi. So'ngra OA bo'ylab tangens Tning qiymati qo'yilib serpantinaning boshi A va oxiri V topiladi. Keyin OA yo'nalishi bo'yicha γ burchagi yasaladi. Topilgan OF yo'nalish bo'yicha asosiy egrining radiusi R o'lchab qo'yilib, joyda asosiy aylana egrisining boshi F nuqtasi topiladi. SHu kabi, OV yo'nalishi bo'yicha asosiy aylana egrisining oxiri E nuqtasi ham topiladi.

22 - amaliy mashg'ulot

Nivelir tarmog'i loyihasini yaqinlashtirish usuli bilan baholash.

Geodezik tarmoq sifatiga va aniqlangan futur etkazilgan holda shaklini bir chiziqqa olib kelish mumkin. Buning uchun geodezik tarmok shaklini yaqinlashtirish usulini qo'llab o'zgartirish kerak.

Ikki tugun nuqtaga ega bo'lgan yopiq tomon (22.1 – rasm) shaklini teskari vazni $\pi = \frac{\pi_1 \cdot \pi_2}{\pi_1 + \pi_2}$ ga teng bo'lgan bir chiziq (23.1 – rasm) bilan almashtiriladi.


AVS shaklidagi uchburchak shaklida (23.3 - rasm) aylanadi, teskari vazni esa quyidagi formuladan topiladi:

$$\pi'_a = \frac{\pi_\epsilon \cdot \pi_c}{\pi_a + \pi_\epsilon + \pi_c} \quad ; \quad \pi'_\epsilon = \frac{\pi_a \cdot \pi_c}{\pi_a + \pi_\epsilon + \pi_c} \quad ; \quad \pi'_c = \frac{\pi_a \cdot \pi_\epsilon}{\pi_a + \pi_\epsilon + \pi_c} .$$




Nivelir tarmog‘i loyihasini yaqinlashtirish usuli bilan baholashda ko‘rsatilgan seksiyalar bilan aniqlash.

22.1 – rasmda nivelir tarmog‘ining 2 va 3, 4 va 5 --- va 10, 13, 15, seksiyalari 23.2– rasmda ko‘rsatilgan bir seksiyalar bilan aniqlanadi.




23.1- rasm. Nivelir tarmog'ining loyihasi sxemasi.



23.2 - rasm. chuqurlik reperi loyihasi sxemasi.

3, 1, 2 va 7, 8, 6 seksiyalarni bir chiziq bilan almashtirgan chiziqdan keyin quyidagi natija chiqadi.




23.3- rasm. Uchburchaklarni yulduzcha shakliga keltirish loyihasi sxemasi.

Uchburchaklar 3-2-4, 5-6-7 ni 8 – formulaga asosan “yulduzcha” shakliga keltiramiz.

«Yulduzcha» tomonlarining vazni 23.1- jadvalda keltirilgan.

23.1-Jadval

Burchaklar	Π	π'	Burchaklar	π	π'
2	1,29	0,60	5	1,48	0,38
3	1,60	0,49	6	1,00	0,54
4	1,75	0,44	7	1,42	0,38





23.4- rasm. Ikki chiziq bilan almashtirish sxemasi.

24 - amaliy mashg'ulot

Nivelir tarmog'ida ikki seksiyani ikki chiziq bilan almashtirish.

Ikki seksiyani (X1-3-5-X2 va X2-6-4-X1) ikki chiziq bilan almashtiramiz.



24.1- rasm. Ikki seksiyani ikki chiziq bilan almashtirish.

SHunday qilib, $\pi_F = \pi_{\text{чпуо-чпу}} = 18,08$

Miqdorni tenglashtirishning o'rta kvadratik nuqsoni $m_F = \frac{\mu_n}{\sqrt{\frac{1}{\pi_F}}}$.

bunda μ_n - vazn birligining o'rta kvadratik nuqsoni.

25 - amaliy mashg'ulot

Avtomobil yo'li trassasining bo'ylama profilini tuzish. Trassa o'qini loyihalash

1.Ishdan maqsad: nazariy bilimlarni mustahkamlash va avtomobil yo'lini bo'ylama profilini tuzish masalalarini yechish va ko'nikmalarini egallash.

2.Ishni bajarish tartibi.

2.1.Trassaning bo'ylama profili gorizontal tekislikda nisbati 1:5000 va 1:10000 va vertikal holati 10 marta yirikroq nisbatda chiziladi.

3.Avtomobil yo'li trassasining bo'ylama profilini tuzish. Trassa o'qini loyihalash plani o'qituvchi tomonidan beriladi.

4.Hisoblash ishlari quyidagi ifodalar orqali topiladi:

Bo'ylama profilni tuzish uchun material bo'lib, karta yoki planda kameral holatda bajarilgan trassalash ishlari asos bo'ladi. Topografik planda kerakli trassa o'qini o'tkazgandan keyin, uni piketlab, plyus nuqtalari aniqlanadi, gorizontallar orasi interpolyatsiya qilinib zarur nuqtalarning otmetkalari topiladi.

Trassaning bo'ylama profili gorizontal tekislikda nisbati 1:5000 va 1:10000 va vertikal holati 10 marta yirikroq nisbatda chiziladi. Profilda taxminan loyiha chiziq o'tkaziladi. So'ngra loyiha chiziq kesgan va unga teng ravishda


Bo'ylama profil ma'lumotlarini profil to'rining har bir ustuniga yoziladi. 1.17-rasmda bo'ylama profil loyihasi keltirilgan.

26 - amaliy mashg'ulot

Trassa o'qini loyihalashda avval profilda piketlar va plyus nuqtalarni belgilash.

Avval profilda piketlar va plyus nuqtalar belgilanadi. Joyning otmetkalari trassa bo'yicha vertikal nisbatda shartli qabul qilingan gorizontal chiziqqa nisbatan qo'yiladi. Absissa va ordinata bo'yicha topilgan nuqtalar chiziqlar bilan birlashtirilib trassaning profili barpo etiladi. Gorizontal egrilar profilda mos ravishda trassa o'ngga qayrilgan bo'lsa qabariq shaklda va agar trassa chapga qayrilgan bo'lsa o'yilma shaklda ko'rsatiladi. Qabariq va o'yilma ichiga piketning boshi va oxiri, qayrilmaning boshqa asosiy elementlari – uning radiusi, burilish burchagi, tangensi, egri uzunligi, bissektrisa domer (ulanma) ko'rsatiladi. Trassaning to'g'ri chiziq bo'ylab ketadigan qismi esa uning direksion burchagi yoki rumbi, to'g'ri chiziqning uzunligi kiritiladi.

Trassa boshining otmetkasi va uni navbatdagi nuqta otmetkasi quyidagi formuladan topiladi



$$H = H_0 + i \cdot l.$$

Bu yerda , N - navbatdagi nuqta otmetkasi, H – boshlang‘ich nuqtaning otmetkasi, i – loyihaviy nishablik d – gorizontal masofa.


27 - Amaliy mashg‘ulot

Trassa o‘qini loyihalashda loyihaviy otmetkalar bilan ishlash.

Loyihaviy otmetkalar bir santimetrgacha yaxlitlanib tegishli grafaga yoziladi. Agar nishablik $i=0$ bo‘lsa, loyiha chizig‘i gorizontal chiziq bilan ifodalanib nishablik promilda (minglikda 0/00) ko‘rsatiladi.

Loyiha otmetkalar bo‘yicha loyiha chiziq o‘tkaziladi va yo‘l o‘qining qora otmetkalari bilan loyiha otmetkalari orasidagi, ya’ni ishchi otmetkalar topiladi. Ishchi otmetkalar piket va plyus nuqtalari ham topiladi. Joy profil chizig‘i bilan loyiha chizig‘i kesishgan chiziq ish bajarilmaydigan nol nuqtali deyiladi.

27.1- rasmda ko‘rsatilgandek,




27.1-rasm. Nol nuqtasigacha bo‘lgan masofani aniqlash sxemasi

$$\frac{h_1}{h_2} = \frac{x}{d-x};$$

$$x = \frac{h_1}{h_1 + h_2} \cdot d;$$

Bu yerda h_1 va h_2 – ishchi otmetkalar;
 d – piketlar orasidagi masofa



27.1-rasm. Yo'l o'qining ko'ndalang kesimi

x – nol nuqtalarni to'rtqadagi nuqttagacha bo'lgan masofa

Hisoblab topilgan x masofa orqali profil ish bajarilmaydigan nuqtalarni, ya'ni nol nuqtalar topiladi.

Ba'zi ko'ndalang kesimda ajralib turgan joylarda profil tuziladi.

1.10.2. Basharti, agar loyiha chizig'ini aniq qilib o'tkazish kerak bo'ladi, ya'ni o'yilma va ko'tarma joylarning yer hajmlari bir-biriga teng bo'lsin deb shart qo'yish, unda bu ishni matematik modellashtirish usuli bilan hal qilsa bo'ladi. Demak, loyiha chizig'ining tenglamasi

$$y = a - bx.$$

bo'lsin. Unda, tenglama koeffitsiyentlari quyidagi ikki normal tenglamalardan aniqlanadi:

$$\begin{cases} na + b\sum x = \sum y \\ a\sum x + b\sum x^2 = \sum xy \end{cases}$$

SHunday qilib, matematik model tenglamasi

$$y_{mi} = a - bx_i.$$

bo'ladi.

Bu modelda x abssissa qiymatini berib u ordinata qiymatini aniqlash mumkin. Ishchi otmetkani aniqlash uchun berilgan profildagi ordinata qiymatidan modelda topilgan ordinata qiymatini ayirish kerak.

$$\Delta Y_{pa\delta} = Y_{Mi} - Y_i.$$

Ishning bu yoʻsinda bajarilishi oʻyilma va koʻtarma hajmlarini juda oz farq bilan aniqlashda yordam beradi.

28 - amaliy mashgʻulot

Obidalarining ogʻish burchagini aniqlash

Obidalarining ogʻish burchagini koordinatalar usuli, tik proyeksiyalash, kichik burchaklarni oʻlchash usuli va boshqa usullar bilan aniqlanadi.

Koordinatalar usuli

Bu usulda ogʻish burchagi aniqlanadigan obidaning qirrasini, yaʼni burchagining tagi va oʻsha burchakning uchida nuqtalar belgilanib, oʻsha nuqtalarning koordinatalari aniqlanadi.

29.1-rasm. Inshoot qirrasining ogʻish burchagi va miqdorini koʻrsatuvchi chizma.

Ogʻish burchagi va miqdori orasida quyidagi bogʻliqlik mavjud:

$$\operatorname{tg} \varepsilon = \frac{\Delta l}{H}$$

Bu yerda ε – ogʻish burchagi;

Δl – ogʻish miqdori;

N – inshootning balandligi.

Undan tashqari

$$\Delta l = \sqrt{(X_C - X_A)^2 + (Y_C - Y_A)^2}$$

Ogʻishning yoʻnalishi esa

$$\operatorname{tg} \alpha = \frac{Y_C - Y_A}{X_C - X_A}$$

Qirraning tagi va uchining koordinatalarini aniqlash uchun asos rejalashtiriladi va qolgan hisob – kitob ishlari choʻziq inshootlarning boʻylama tasvirini chizishda geodezik asos barpo etish usulida bajariladi.

Minoralarning ogʻishini aniqlash uchun ularning tagi O_m va uch tomonida kesim olib, kesimlarni markazlarining koordinatalarini (4.4-


rasm) $X = \frac{X_A \cdot \operatorname{Ctg} \beta + X_B \cdot \operatorname{Ctg} \gamma - Y_A + Y_B}{\operatorname{Ctg} \gamma + \operatorname{Ctg} \beta}$ va $Y = \frac{Y_A \cdot \operatorname{Ctg} \beta + Y_B \operatorname{Ctg} \gamma + X_A - X_B}{\operatorname{Ctg} \gamma + \operatorname{Ctg} \beta}$

ifodalardan foydalanib aniqlash kerak. Agar oʻsha koordinatalar maʼlum

bo'lsa, og'ish burchagi va og'ish miqdori $\Delta l = \sqrt{(X_C - X_A)^2 + (Y_C - Y_A)^2}$ va $\operatorname{tg} \alpha = \frac{Y_C - Y_A}{X_C - X_A}$ tenglamalardan aniqlanadi.

29 - amaliy mashg'ulot


Minoraning og'ish burchagini aniqlash.



29.1-rasm. Minoralarining og'ishini aniqlash chizmasi.


Minora kesimlarining balandliklari $h = \frac{e \cdot \sin \beta}{\sin(\gamma + \beta)} \cdot \operatorname{tg} V + i$ ifodadan aniqlanadi.

Agar minora sirtidagi nuqtalarning o'zgarishlarini aniqlash lozim bo'lsa, uni bir necha qismlarga (3.10-rasm) bir necha nuqtalar belgilanadi va ularning koordinatalari aniqlanadi.



29.2-rasm. Minora kesimlari va ularda olingan nuqtalar.

30 - amaliy mashg'ulot
Minoraning atrofida tashkil qilingan triangulyasiya tarmog'ini
aniqlash.




30.1-rasm. Minora atrofida tashkil qilingan triangulyatsiya chizmasi.

Avvalo minora atrofida triangulyasiya tashkil qilinadi. Asoslarning uzunliklari, ufqiy burchaklar o'lchanib, triangulyasiya burchaklari tenglashtiriladi. Nuqtalardan burchak kesishtirish usuli bilan minora sirtidagi nuqtalarning fazoviy koordinatalari aniqlanadi.

SHunday qilib, har bir kesimda bir nechta nuqtaning koordinatalari ma'lum bo'ladi.

Kesim markazining koordinatalarini aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi.

O'ta katta aniqlik talab qilinmasa, kesim (aylana) markazining koordinatalari *chizma usulida* aniqlanadi. Buning uchun kesimda aniqlangan nuqtalarning koordinatalari bo'yicha ularning o'rnini millimetr qog'ozida 1:20, 1:50, 1:100 masshtabda topiladi (4.7-rasm). So'ngra u nuqtalar vatarlar bilan birlashtirilib, hosil bo'lgan chiziqlarning o'rtasidan perpendikulyar chiqariladi. Ular kesim markazida 1-1,5 mm atrofida kesishishi lozim. Agar u shart bajarilsa, kesim (aylan) markazida kichkina doirasimon shakl hosil bo'ladi. SHaklning o'rtasini nuqta bilan taxminan belgilanadi va o'sha nuqtaning koordinatalari aniqlanadi.



30.1-rasm. Kesim markazini topish.

Har bir kesim uchun ana shunday reja tuzilib, uning radiusi rejada bevosita o'lchanadi.

SHu yo'sinda o'lchangan radius uzunligining xatosi o'sha radiusni uning uchlari koordinatalari orqali aniqlash xatosidan $\sqrt{2}$ marta aniqdir.

CHizma usulda radius uzunligini aniqlash xatosi quyidagi ifoda yordamida topiladi:

$$m_M = \sqrt{m_1^2 + (m_2 + m_3 + m_4 + m_5 + m_6)^2}$$

Tenglamada: m_M – aylana markazini aniqlashda ta'sir etadigan dalada bajarilgan geodezik o'lchashlarning xatosi;

m_1 – 0,20 m (M- sonli masshtabning mahraji);

m_2 – o'sha nuqtani kvadrat to'rining tomonlariga nisbatan aniqlashda yo'l qo'yilgan xato miqdori, $m_2 = 0,25$ mm;

m_3 – vatarni o'tkazish xatosi, $m_3 = 0,14$ mm;

m_4 – vatar o'rtasidan pargar yordamida perpendikulyar o'tkazish xatosi, $m_4 = 0,14$ mm;

m_5 – chizgich yordamida perpendikulyar o'tkazish xatosi, $m_5 = 0,05$ mm;

m_6 – ikki perpendikulyar kesishtirish xatosi, $m_6 = 0,08$ mm.

Qiymatlarni yuqoridagi ifodaga qo‘ysak

$$m_M = 0,69 \text{ m}$$

bo‘ladi.

Agar aylana markazi $0,5 \cdot n$ punktlardan topilishini hisobga olsak,

$$m_M = \frac{0,97M}{4}$$

bo‘ladi.

Aylana radiusi esa

$$m_R = \sqrt{\frac{(7,6+n)0,019M^2}{n} + \frac{m_a^2(a^2 + e^2)}{2\rho^2 \sin \varphi}}$$

tenglamadan topiladi.

Kesim markazining koordinatalari o‘ta katta aniqlikda hisoblash uchun *a n a l i t i k u s u l* qo‘llaniladi.

Inshootning kesim aylanasi bir necha nuqtaning koordinatalari (X_i, Y_i, Z_i) aniqlangan bo‘lsin (bu yerda $i=1,2..n$).

Har uchta nuqtadan o‘tgan aylananing tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$(X_{1,2,3} + a_1)^2 + (Y_{1,2,3} + e_1)^2 = R_i^2;$$

$$(X_{2,3,4} + a_2)^2 + (Y_{2,3,4} + e_2)^2 = R_i^2;$$

$$\dots\dots\dots$$

$$(X_{i,i} + n + 2 + a_n)^2 + (Y_{i,i} + li + 2 + e_n)^2 = R_i^2;$$

Bu yerda, R_i – aylanalarning radiuslari,

$X_1, X_2 \dots X_n, Y_1, Y_2 \dots Y_n$ – muvofiq ravishda I, II...N kesim aylanalarining koordinatalari.

Bu tenglamalarning har biri uchta tenglamadan iborat bo‘lib, bir xil tarzda yechiladi. SHuning uchun ularning birinchisining yechilishini ko‘rib chiqamiz.

$$(X_1 + a_1)^2 + (Y_1 + e_1)^2 = R_1^2;$$

$$(X_2 + a_1)^2 + (Y_2 + e_1)^2 = R_1^2;$$

$$(X_3 + a_1)^2 + (Y_3 + e_1)^2 = R_1^2.$$

Tenglamalarni *a* va *v* ga nisbatan yechamiz:

$$a = \frac{Y_1(X_3^2 + Y_3^2 - X_2^2 - Y_2^2) - Y_2(X_1^2 + Y_1^2 - X_3^2 - Y_3^2) + Y_3(X_2^2 + Y_2^2 - X_1^2 - Y_1^2)}{2[Y_1(X_3 - X_2) + Y_2(X_1 - X_3) + Y_3(X_2 - X_1)]} = \frac{U_1}{g_1},$$

$$e = \frac{X_1(X_3^2 + Y_3^2 - X_2^2 - Y_2^2) + X_2(X_1^2 + Y_1^2 - X_3^2 - Y_3^2) + X_3(X_2^2 + Y_2^2 - X_1^2 - Y_1^2)}{2[X_1(Y_3 - Y_2) + X_2(Y_1 - Y_3) + X_3(Y_2 - Y_1)]} = \frac{U_2}{g_1},$$

31 - amaliy mashg‘ulot

Obidalarining og'ishida aylana radiusi va markazining koordinatalar hisoblash xatosini aniqlash.

Aylana radiusi va markazining koordinatalarini hisoblash xatosini aniqlash uchun quyidagi ifodalarni qabul qilamiz:

$$\begin{aligned} X_3^2 + Y_3^2 - X_2^2 - Y_2^2 &= C_1; \\ X_1^2 + Y_1^2 - X_3^2 - Y_3^2 &= C_2; \\ X_2^2 + Y_2^2 - X_1^2 - Y_1^2 &= C_3; \\ X_3 - X_2 &= \mathcal{A}_1; Y_3 - Y_2 = \mathcal{A}_1^1; \\ X_1 - X_3 &= \mathcal{A}_2; Y_1 - Y_3 = \mathcal{A}_2^1; \\ X_2 - X_1 &= \mathcal{A}_3; Y_2 - Y_1 = \mathcal{A}_3^1 \end{aligned}$$

Quyidagi ifodalarni hisobga olgan holda

$$\begin{aligned} (X_1 + a_1)^2 + (Y_1 + \mathfrak{e}_1)^2 &= R_1^2; \\ (X_2 + a_1)^2 + (Y_2 + \mathfrak{e}_1)^2 &= R_1^2; \\ (X_3 + a_1)^2 + (Y_3 + \mathfrak{e}_1)^2 &= R_1^2. \end{aligned}$$

Tenglamalarining a va v funksiyalarini $X_1, X_2, X_3; U_1, U_2, U_3$ argumentlarga nisbatan differensiyalaymiz:

$$\begin{aligned} \frac{\partial a}{\partial x_1} &= \frac{2[(Y_2 - Y_3)(X_1 V_1 - U_1)]}{V_1^2} = \frac{U_3}{V_1^2}, \\ \frac{\partial a}{\partial x_2} &= \frac{2[(Y_3 - Y_1)(X_2 V_1 - U_1)]}{V_1^2} = \frac{U_4}{V_1^2}, \\ \frac{\partial a}{\partial x_3} &= \frac{2[(Y_1 - Y_2)(X_3 V_1 - U_1)]}{V_1^2} = \frac{U_5}{V_1^2}, \\ \frac{\partial a}{\partial y_1} &= \frac{2[C_1 + 2Y_1(Y_2 - Y_3) - 2\mathcal{A}_1 U_1]}{V_1^2} = \frac{U_6}{V_1^2}, \\ \frac{\partial a}{\partial y_2} &= \frac{V[C_2 - 2Y_2(Y_3 - Y_1)] - 2\mathcal{A}_2 U_1}{V_1^2} = \frac{U_7}{V_1^2}, \\ \frac{\partial a}{\partial y_3} &= \frac{V[C_3 - 2Y_3(Y_1 - Y_2)] - 2\mathcal{A}_3 U_1}{V_1^2} = \frac{U_8}{V_1^2}, \\ \frac{\partial \mathfrak{e}}{\partial x_1} &= \frac{C_1 V_2 + 2[V_2(X_1 X_2 - X_1 X_3)] - \mathcal{A}_1^1 U_2}{V_2^2} = \frac{U_9}{V_2^2}, \\ \frac{\partial \mathfrak{e}}{\partial x_2} &= \frac{C_2 V_2 + 2[V_2(X_2 X_3 - X_1 X_2)] - \mathcal{A}_2^1 U_2}{V_2^2} = \frac{U_{10}}{V_2^2}, \\ \frac{\partial \mathfrak{e}}{\partial x_3} &= \frac{C_3 V_2 + 2[V_2(X_1 X_3 - X_2 X_3)] - \mathcal{A}_3^1 U_2}{V_2^2} = \frac{U_{11}}{V_2^2}, \\ \frac{\partial \mathfrak{e}}{\partial y_1} &= \frac{2(X_2 - X_3)(Y_1 V_2 - U_2)}{V_2^2} = \frac{U_{12}}{V_2^2}, \\ \frac{\partial \mathfrak{e}}{\partial y_2} &= \frac{2(X_3 - X_1)(Y_2 V_2 - U_2)}{V_2^2} = \frac{U_{13}}{V_2^2}, \end{aligned}$$

$$\frac{\partial \epsilon}{\partial y_3} = \frac{2(X_1 - X_2)(Y_3 V_2 - U_2)}{V_2^2} = \frac{U_{14}}{V_2^2}.$$

Kesim aylanasi nuqtalarini absissa va ordinata tekisliklaridagi o'rnini aniqlash geodezik asosning shakliga, ishlatiladigan geodezik asbobga va o'lchash ishlarini bajarish tartibiga bog'liq bo'ladi. Ishchi tenglamalarni chiqarish uchun $m_x = m_y = m_u$ deb olamiz. Yuqorida keltirilgan xususiy hosila qiymatlarini funksiyaning umumiy ko'rinishi ifodasiga qo'yib, kesim markazini aniqlashning o'rta kvadratik xatosini topamiz:

$$m_\mu = \frac{m_U}{V_1^2 V_2^2} + \sqrt{V_2^4 (u_3^2 + u_4^2 + u_5^2 + u_6^2 + u_7^2 + u_8^2) + V_1^4 (u_9^2 + u_{10}^2 + u_{11}^2 + u_{12}^2 + u_{13}^2 + u_{14}^2)}$$

Kesimning har uchta nuqtasidan bir aylana o'tkazilishi mumkin. Unda bir kesim nuqtalaridan

$$C_n^3 = \frac{n(n-1) \cdot (n-2)}{n}$$

aylana o'tkaziladi.

Aylana markazini tashkil etuvchi absissalar va ordinatalar ikkita sonlar qatori $(a_1 \langle a_2 \dots \langle a_n, \epsilon_1 \langle \epsilon_2 \dots \langle \epsilon_n)$ ni tashkil etadi.

Qator sonlarni kichik kvadratlar nazariyasidan foydalangan holda $(VV) \rightarrow \min$ sharta asosida echib, a va v qiymatlarning ehtimoliy qiymatlarini topamiz. SHunda markaz koordinatalarini aniqlashning o'rta kvadratik nuqsoni

$$m_\mu = \sqrt{m_u^2 + m_v^2}$$

bo'lsa,

$$m_\mu = \sqrt{\frac{[VV]a + [VV]\epsilon}{n-1}}$$

bo'ladi.

Aylana radiuslari quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$R_i = \sqrt{(x_i - \bar{a})^2 + (y_i - \bar{\epsilon})^2}$$

Hisoblangan radiuslar qiymatlarini kichik kvadratlar asosiy sharti bo'lgan $|VV| \rightarrow \min$ sharti asosida hisoblab, ehtimoliy radius topiladi.

Radius xatosini aniqlash uchun differensiallaymiz:

$$\begin{aligned} \frac{\partial R_i}{\partial x_i} &= \frac{x_i - \bar{a}}{R_i}, \quad \frac{\partial R_i}{\partial \epsilon} = -\frac{y_i - \bar{\epsilon}}{R_i}, \\ \frac{\partial R_i}{\partial y_i} &= -\frac{y_i - \bar{\epsilon}}{R_i}, \quad \frac{\partial R_i}{\partial \bar{a}} = \frac{x_i - \bar{a}}{R_i} \end{aligned}$$

Bu qiymatlarni funksiyaning umumiy ko'rinishi ifodasiga qo'ysak, quyidagi tenglama chiqadi:

$$m_R = \sqrt{\left[\left(\frac{x_i - \bar{a}}{R_i}\right)^2 + \left(\frac{y_i - \bar{b}}{R_i}\right)^2\right] m_\rho^2 + \left[\left(-\frac{x_i - \bar{a}}{R_i}\right)^2 + \left(\frac{y_i - \bar{b}}{R_i}\right)^2\right] m_0^2}$$

Agar

$$\frac{\partial R_i}{\partial x_i} = \frac{x_i - \bar{a}}{R_i}; \quad \frac{\partial R_i}{\partial b} = -\frac{y_i - \bar{b}}{R_i};$$

$$\frac{\partial R_i}{\partial y_i} = -\frac{y_i - \bar{b}}{R_i}; \quad \frac{\partial R_i}{\partial a} = \frac{x_i - \bar{a}}{R_i} \text{ ni hisobga olsak, yuqoridagini}$$

tarzda yozsa bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, inshoot sirtidagi nuqtalarning holatini aniqlash xatosi $m_c = m_\rho \sqrt{2}$ bo'ladi. SHunga o'xshash $m_0 = m_y / \sqrt{2}$ deb yozsa bo'ladi. Demak

$$m_{Rij} = \sqrt{\frac{1}{2}(m_c^2 + m_y^2)}$$

Tenglamadagi m_c ning qiymati inshoot turiga, qurilish qo'yimiga bog'liq bo'ladi. Aylana kesimining markazini aniqlash xatosi m_y esa $m_\mu = \sqrt{\frac{[VV]a + [VV]b}{n-1}}$ ifodadan topiladi. SHu boisdan radiusning ehtimoliy qiymatini hisoblash tenglamasi quydagicha bo'ladi.

$$m_{R\mu} = \frac{m_{Ri}}{\sqrt{n}}$$

32 - amaliy mashg'ulot

Obidalarining og'ishida kesim markazining burchak kesishtirish usuli bilan aniqlash.

Kesim markazining koordinatalarini burchak kesishtirish usuli bilan ham aniqlasa bo'ladi. Buning uchun aylana kesimida ($i = 1, 2, \dots, n$) nuqtalarning rejadagi koordinatalari va aylana uzunligi yonma – yon joylashgan nuqtalarni birlashtirishdan hosil bo'lgan vatarlarning uzunligi L , ularni aniqlash xatosi esa $m_{c1}, m_{c2}, \dots, m_{cn}$ bo'lsin.

Aylana markazida hosil bo'lgan markaziy burchak

$$\varphi_i = \frac{4}{360^\circ} \cdot li$$

ifodasidan topiladi.

Agar ufqiy burchaklar $\alpha = \beta = \gamma_0$ deb qabul qilsak, undan aylana markazining koordinatalari quyidagi tenglamalardan aniqlanadi.

$$X = \frac{Ctg\gamma_0(x_2 - x_1) - y_2 + y_1}{2Ctg\gamma_0} = \frac{u_1}{V_1}$$

$$Y = \frac{Ctg\gamma_0(y_2 - y_1) + x_2 - x_1}{2Ctg\gamma_0} = \frac{u_2}{V_2}$$

Aylana markazini aniqlash xatosini topish uchun yuqoridagi tenglamalarni X_1, X_2, U_1, U_2 va γ funksiyalari bo'yicha differensiallaymiz:

$$\frac{\partial x}{\partial x_1} = \frac{Ctg\gamma_0 \cdot V_1}{V_1^2}$$

$$\frac{\partial x}{\partial x_2} = \frac{Ctg\gamma_0 \cdot V_1}{V_1^2}$$

$$\frac{\partial x}{\partial y_1} = \frac{1}{2Ctg\gamma_0}$$

$$\frac{\partial x}{\partial \gamma} = \frac{\operatorname{cosec}^2\gamma_0[2U_2 - (X_2 - X_1)]}{V_2^2}$$

$$\frac{\partial y}{\partial x_1} = \frac{1}{2Ctg\gamma_0}$$

$$\frac{\partial y}{\partial y_1} = \frac{Ctg\gamma_0 \cdot V_2}{V_2^2}$$

$$\frac{\partial y}{\partial x_2} = \frac{1}{2Ctg\gamma_0}$$

$$\frac{\partial y}{\partial y_2} = \frac{Ctg\gamma_0 \cdot V_1}{V_2^2}$$

$$\frac{\partial y}{\partial \gamma} = \frac{\operatorname{cosec}^2\gamma_0[2U_2 - (Y_2 - Y_1) \cdot V]}{V_2^2}$$

SHunday qilib, aylana markazini aniqlash xatosi,

$m_{X_1} = m_{X_2} = m_{X_3} = m_{y_1} = m_{y_2} = m_{y_3} = m_0$ deb olinsa,

$$m_y = \sqrt{\left(1 + \frac{1}{Ctg^2\gamma_0}m_0 + \frac{\operatorname{cosec}^4\gamma_0[2U_2 - (y_2 - y_1)V]^2}{16Ctg^4\gamma_0} \left(\frac{m_\gamma^2}{\rho}\right)\right)}$$

bo'ladi. Aylana radiusini aniqlash xatosi esa

$$m_{R_i} = \sqrt{\frac{1}{2} \left[m_c^2 + \left(1 + \frac{1}{Ctg^2\gamma_0}\right) m_0^2 + \frac{\operatorname{cosec}^4\gamma_0[2U_2 - (y_2 - y_1)V]^2}{16Ctg^4\gamma_0} \left(\frac{m_\gamma^2}{\rho}\right) \right]}$$

ifodadan topiladi.

Aylananing o'ta ehtimoliy markazi va radiusining xatosi

$m_\mu = \sqrt{\frac{[VV]a + [VV]e}{n-1}}$ va $m_{R\mu} = \frac{m_{Ri}}{\sqrt{n}}$ tenglamalaridan topiladi.

ADABIYOTLAR

1. Avchiyev SH.K. Amaliy geodeziya.-T.: Voris – Nashriyot, 2010.
2. Avchiyev SH.K., Toshpo‘latov S.A. Amaliy geodeziya. O‘quv qo‘llanma. 1 – qism.-T.: TAQI, 2002. 88 b.
3. Avchiyev SH.K. Nazarov B. Yuqori aniqlikdagi geodezik ishlar. O‘quv qo‘llanma. T.: TAQI 2003.83 b.
4. Avchiyev SH.K., Toshpo‘latov S.A. Injenerlik geodeziyasi. O‘quv qo‘llanma. 1,2 – qism. Toshkent 2000.
5. Войтенко С.П. Инженерная геодезия. Киев, “Знания” 2009- 556с.
6. Nurmatov E., O‘tanov O‘. Geodeziya T.: O‘zbekiston 2003. 224 b.
7. Охунов Z. Geodeziyadan praktikum. T.: Universitet 2009. 200 b.
8. Поклад Г.Г., Гриднев С.П. Геодезия М., “Академический проект” 2010 -540с.

MUNDARIJA:

№	Amaliy mashgʻulot nomi	Bet i
1	Poligonometriya tarmogʻi loyihasi aniqligini baholash.....	3
2	Poligonometriya tarmogʻi loyihasining aniqligini baholashning hisoblash tartibi	5
3.	Triangulyatsiya loyihasining aniqligini baholalsh.....	7
4.	Triangulyatsiya loyihasida shartli tenglamalarning oʻzgargan koeffitsiyentlarini hisoblash.....	10
5.	Triangulyatsiya loyihasida normal tenglamalarning koeffitsiyentlari matritsasini hisoblash.....	12
6.	Triangulyatsiya loyihasini soddalashtirilgan usul bilan baholash.....	14
7.	Topgrafik planlarni batafsilligini,toʻliqligini aniqlash.....	15
8.	Gorizontal burchak yasashning soddalashtirilgan usul.....	16
9.	Gorizontal burchak yasashning mukammallashtirilgan usul.....	17
10.	Loyihaviy gorizontal masofa yasashning soddalashtirilgan usul..	17
11.	Loyihaviy gorizontal masofa yasashning mukammallashtirilgan usul.....	18
12.	Bino burchagidagi nuqtaning koordinatalarini aniqlash.....	19
13.	Bino va inshootlarning choʻkishini va siljishini aniqlash.....	20
14.	Bino va inshootlarning choʻkishi va siljishining sabablari.....	21
15.	Bino va inshootlarning choʻkishini aniqlashda bajariladigan nivelirlash ishlarining old hisobi.....	21
16.	Trassadagi egrilik elementlarini hisoblash.....	23

17.	Trassadagi egrilik elementlarining ikkinchi qayrilmasini hisoblaymiz.....	24
18.	CHiziqli inshootlarni to'siq orqali trassalash.....	25
19.	CHiziqli inshootlarni to'siq orqali trassalash.....	26
20.	Serpantin.....	27
21.	Serpantinni joyga o'tkazish.....	27
22.	Nivelir tarmog'i loyihasini yaqinlashtirish usuli bilan baholash.....	29
23.	Nivelir tarmog'i loyihasini yaqinlashtirish usuli bilan baholashda ko'rsatilgan seksiyalar bilan aniqlash.	30
24.	Nivelir tarmog'ida ikki seksiyani ikki chiziq bilan almashtirish.....	32
25.	Avtomobil yo'li trassasining bo'ylama profilini tuzish. Trassa o'qini loyihalash.....	33
26.	Trassa o'qini loyihalashda avval profilda piketlar va plyus nuqtalarni belgilash.....	34
27.	Trassa o'qini loyihalashda loyihaviy otmetkalar bilan ishlash....	36
28.	Obidalarining og'ish burchagini aniqlash.....	38
29.	Minoraning og'ish burchagini aniqlash.....	39
30.	Minoraning atrofida tashkil qilingan triangulyatsiya tarmog'ini aniqlash.....	40
31.	Obidalarining og'ishida aylana radiusi va markazining koordinatalar hisoblash xatosini aniqlash.....	42
32.	Obidalarining og'ishida kesim markazining burchak kesishtirish usuli bilan aniqlash.....	45
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	47

